



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(3)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 246 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiov Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinova</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboyevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA	CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech.....	184
		Turumbetova Aygul Yusupbaevna	
		Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi.....	189
		Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	
		Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish.....	191
		Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	
		Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi.....	195
		Ermatova Robiya Bekjonali qizi	
		The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education.....	199
		Ismailova Shaira Ferdausovna	
		Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners	204
		Maqsudova Gulnoz Olimovna	
		Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms.....	208
		Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	
		Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching.....	212
		Sharipova Muhabbat Erkinovna	
		Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili.....	216
		Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	
		Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv	222
		Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	
		O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili	227
		Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	
		Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	229
		Safarova Madina Azamat qizi	
		Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности.....	233
		Аскарлова Гулрух Оринбасаровна	
		Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века	239
		Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Фолиб	
		Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана	242
		Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	



BO'LAJAK BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT SOHASIDAGI TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI



Arziyeva Visola Namozovna

Jizzax politexnika instituti tayanch doktoranti

ORCID: 0000-0001-8107-9829

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak buxgalteriya hisobi va audit sohasi mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kasbiy tayyorgarlik hamda zamonaviy mehnat bozori talablarining o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari hamda ularni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, buxgalteriya hisobi, audit, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kasbiy rivojlanish, kompetentlik.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of developing professional competencies among future specialists in accounting and auditing. The study highlights the interrelationship between the competency-based approach, learner-centered education, professional training, and the demands of the modern labor market. Furthermore, it reveals the pedagogical factors influencing the formation of professional competencies among students majoring in accounting and auditing, as well as the theoretical and methodological foundations for their development.

Key words: professional competence, accounting, auditing, competency-based approach, professional training, learner-centered education, professional development, competency.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические основы развития профессиональных компетенций будущих специалистов в области бухгалтерского учета и аудита. Освещена взаимосвязь компетентного подхода, лично-ориентированного образования, профессиональной подготовки и требований современного рынка труда. Кроме того, раскрыты педагогические факторы формирования профессиональных компетенций у студентов направления бухгалтерского учета и аудита, а также теоретико-методологические основы их развития.

Ключевые слова: профессиональная компетенция, бухгалтерский учет, аудит, компетентный подход, профессиональная подготовка, лично-ориентированное образование, профессиональное развитие, компетентность.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga moslashtirilishi hamda audit faoliyatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar buxgalteriya hisobi va audit sohasi mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda mehnat bozori nafaqat nazariy bilimlarga ega, balki amaliy vaziyatlarni tahlil qila oladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan va kasbiy etika tamoyillariga rioya qiladigan mutaxassislarni talab etmoqda ^[1].

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak buxgalter va auditorlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish oliy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslarini tadqiq etish esa mazkur jarayonni ilmiy asosda tashkil etish imkonini beradi. Har qanday jamiyatning rivojlanishi uni boshqarishni taqozo etadi.

Boshqaruv, o'z navbatida, jamiyatning turli tarmoq va sohalarida yuz bergan hamda yuz berayotgan jaryonlar, xo'jalik faoliyatini olib borayotgan subyektlarning mablag'lari, ularni tashkil etish manbalari, erishayotgan natijalari va boshqa jihatlari to'g'risidagi axborotlarning mavjudligiga bog'liq bo'ladi. Bunday axborotlarni o'zida mujassamlashtiruvchi vosita bo'lib xo'jalik hisobi hisoblanadi ^[2].

Bugungi kunda mutaxassisdan nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lish, balki amaliy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va kasbiy muammolarni samarali hal etish ko'nikmalariga ega bo'lish talab etiladi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida 60410100 - Buxgalteriya hisobi va audit bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish davlat ta'lim standartlarida belgilangan hamda oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalariga majburiy qism sifatida kiritilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak buxgalteriya hisobi va audit sohasi mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika, iqtisodiyot va kasbiy ta'lim sohalarida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar kasbiy kompetensiyaning mazmun-mohiyati, uning tarkibiy tuzilishi, shakllanish mexanizmlari hamda ta'lim jarayonida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashga qaratilgan.

Kasbiy kompetensiya tushunchasi ilk bor G'arb olimlari tomonidan keng tadqiq etilgan. David McClelland kompetensiyani insonning muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlaydigan bilimlar, ko'nikmalar va shaxsiy sifatlar majmui sifatida talqin qiladi. Muallifning ta'kidlashicha, an'anaviy bilimlarni baholash tizimi mutaxassisning haqiqiy kasbiy imkoniyatlarini to'liq aks ettira olmaydi. Shu sababli kompetensiyaga asoslangan yondashuv mutaxassis tayyorlash sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi [4].

Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari rus pedagog olimlari tomonidan ham keng o'rganilgan. Jumladan, Irina Zimnyaya kompetensiyani shaxsning bilimlari, ko'nikmalari, tajribasi va qadriyatlarini amaliy faoliyatda samarali qo'llash qobiliyati sifatida izohlaydi. Uning tadqiqotlarida kompetensiya va kompetentlik tushunchalari o'rtasidagi farqlar ochib berilgan bo'lib, kompetensiya ma'lum faoliyat sohasiga oid talablarni, kompetentlik esa ushbu talablarni amalda bajarish qobiliyatini anglatishi ta'kidlangan [5].

Xalqaro miqyosda buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi kasbiy kompetensiyalar masalasi International Federation of Accountants (IFAC) tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro ta'lim standartlarida keng yoritilgan. Ushbu standartlarda professional buxgalterlar uchun zarur bo'lgan texnik bilimlar, intellektual ko'nikmalar, axloqiy qadriyatlar va kasbiy munosabatlar tizimi belgilab berilgan. IFAC mutaxassislarning kasbiy rivojlani-shida uzluksiz ta'lim va amaliy tajribaning muhimligini alohida ta'kidlaydi [6].

Mahalliy olimlar tomonidan ham buxgalteriya hisobi va audit sohasida mutaxassislarning tayyorlash muammolari o'rganilgan. B. Isroilov, A. Pardaev, M. Raximov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan buxgalteriya hisobi nazariyasi, audit asoslari hamda moliyaviy tahlil metodologiyasiga oid ilmiy ishlar yaratilgan. Mazkur tadqiqot-larda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va zamonaviy iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish muhimligi ta'kidlangan [7-8].

Biroq, so'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, buxgalteriya hisobi va audit yo'nali-shida tahsil olayotgan talabalar amaliyotga yo'naltirilgan, texnologiyalarga asoslangan kasbiy tayyorgarlikdan yetarli darajada o'ta olmayptilar. An'anaviy o'qitish metodlari ushbu sohadagi zamonaviy ehtiyojlarga to'liq javob bermaydi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot uchun ma'lumot to'plashda tizimli adabiyot sharhi (Systematic Literature Review) usuli qo'llanilgan. Tadqiqot davomida 14 ta maqolani tahlil qilib, buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Buxgalteriya hisobi va audit mutaxassislarning kasbiy faoliyati murakkab iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va tekshirish bilan bog'liq. Shu sababli talabalar quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishlari lozim:

1. **Kasbiy kompetensiya.** Kasbiy kompetensiya buxgalteriya hisobi standartlari, audit tamoyillari, moliyaviy tahlil va soliq tizimi bo'yicha bilimlarni o'z ichiga oladi. Talaba amaldagi qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi hamda ularni amaliyotda qo'llay olishi zarur [5].
2. **Tahliliy kompetensiya.** Moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilish, iqtisodiy jarayonlarni baholash va prognoz-lash qobiliyati audit va hisob sohasidagi mutaxassislarning uchun muhim hisoblanadi. Tahliliy kompetensiya qaror qabul qilish sifatini oshiradi.
3. **Axborot-kommunikatsion kompetensiya.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya dasturlari, elektron hisobot tizimlari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish mutaxassisning ajralmas kompeten-siyasiga aylangan [11].



Kommunikativ kompetensiya. Mutaxassis mijozlar, hamkasblar va rahbariyat bilan samarali muloqot o'ratishi, moliyaviy ma'lumotlarni tushunarli tarzda taqdim eta olishi lozim [10].

TAHLIL VA NATIJALAR

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijasini faqat bilimlar hajmi bilan emas, balki ularni amaliyotda qo'llash qobiliyati bilan baholashni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- 1. Talaba shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim;
- 2. Nazariya va amaliyot integratsiyasi;
- 3. Mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish;
- 4. Muammoli vaziyatlarni hal etishga yo'naltirish;
- 5. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish.

Mazkur yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida talabalar kasbiy vazifalarni bajarish orqali amaliy tajriba orttiradilar va kelajakdagi faoliyatlariga tayyorlanadilar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya hisobi va audit sohasida samarali faoliyat yurituvchi mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lashga imkon beradi. Natijada ularda mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak buxgalteriya hisobi va audit sohasi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuv, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari va raqamli vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada mehnat bozori talabalariga javob beradigan, raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Varziyeva V. Kompetensiyaviy yondashuv asosida yosh buxgalterlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish // Xalq ta'limi. - 2025. - № 5 (sentabr-oktabr).
2. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit: o'quv qo'llanma. - Toshkent: O'qituvchi, 2004. - 320 b.
3. Axmedjanov A. Buxgalteriya hisobi shakllari, ularning mohiyati va tarixiy rivojlanish bosqichlari // Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar. - 2025. - T. 2, № 5. - B. 242-245. - DOI: 10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss5-pp242-245.
4. McClelland D.C. Testing for competence rather than for intelligence // American Psychologist. - 1973. - Vol. 28, No. 1. - P. 1-14. - DOI: 10.1037/h0034092.



5. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования. - Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. - 42 с.
6. International Federation of Accountants. Handbook of International Education Pronouncements. - New York: IFAC, 2021.
7. Parдав А.Х. Аудит асослари. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi nashriyoti, 2019. - 256 b.
8. Raximov M.Y. Moliyaviy hisobot tahlili. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. - 288 b.
9. Garcia-Benau M.A., et al. Hybrid Learning in Accounting Education: Developing Future Competencies // Sustainability. - 2021. - Vol. 13, No. 8. - Art. 4429.
10. Татур Ю.Г. Компетентность в структуре модели качества подготовки специалиста. - Москва, 2017. - 184 с.
11. Arziyeva V. Ta'lim jarayonida buxgalteriya hisobi va audit sohasini o'qitishning kompetensiyaviy yondashuvlari // Makon va zamon (Space & Time Journal). - 2025. - № 3.
12. Spencer L.M., Spencer S.M. Competence at Work: Models for Superior Performance. - New York: John Wiley & Sons, 1993. - 384 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.